

O'ZBEKISTONDA HUQUQIY VA SIYOSIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Ergashev Firdavs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7049309>

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olar ekan, demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldiga pirovard maqsad qilib qo'ydi. Bu oliy maqsad yo'lida shu kungacha ko'pdan-ko'p ishlar amalga oshirildi. Ma'lumki, demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini Konstitutsiya va qonun ustunligiga erishmay, ularni ham normativ hujjatlarda, ham amalda ta'minlamay turib qurib bo'lmaydi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgan davrdan boshlab, jamiyatda amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qancha islohotlarga ehtiyoj sezildi. Xalqimiz o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan erkin fuqarolik jamiyatining shakllantirish metodologik va aniq ijtimoiy-amaliy xususiyatlarni o'zida uyg'unlashtiradigan ko'p qirrali jarayonlardir. Ko'pchilik tadqiqotlarda "fuqarolik jamiyati" tushunchasi "demokratiya" tushunchasining tarkibiy qismi, uning mazmunini ochib beruvchi "bo'lagi" sifatida talqin etiladi.

Fuqarolik jamiyati bilan demokratik huquqiy davlat ajralmasdir, ular mudom bir-birini taqozo etadi, bir-birini to'ldirib, qo'llab-quvvatlab boradi. Xo'sh, aslida fuqarolik jamiyati qanday faoliyat yuritadi? U avvalo huquq shakllari va davlat hokimiyati hamda unga bo'ysunuvchi huquq subyektlari o'zaro munosabatlarining qonuniy xarakterini (huquq va majburiyatlar o'rtasidagi muvozanat) joriy etish, barcha individlarning rasmiy teng huquqliligi va erkinligini, inson va fuqaro huquq va erkinliklarini o'rnatish va kafolatlashga qaratilgan maqsadlarga tayangan holda shakllanadi, faoliyat yuritadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati sharoitidagi ijtimoiy faoliyat, mustabidlik tuzumidan farqli o'laroq, "qonun taqiqlamaydigan hamma ishni qilish mumkin" degan tamoyilga asoslanadi. Agar mustabid tuzum sharoitida hamma narsani davlat boshqarsa va fuqarolarga qonuniy jihatdan taqiqlangan muayyan huquqlarni bersa, fuqarolik jamiyati inson avval-boshdanoq erkin va ozod bo'lib tug'ilganini nazarda tutadi. Ijtimoiy faoliyat jarayonida esa fuqaro bir qancha malaka va ko'nikmalarga ega bo'la boshlaydi. Ularning ichida eng muhimi siyosiy madaniyatdir. Ilmiynazariy adabiyotlarda bayon qilingan fikrlarni umumlashtirib, siyosiy madaniyatga quyidagicha ta'rif berish mumkin: u siyosiy tizim subyektlari bo'lmish partiyalar, birlashmalar, jamoalarning davlat hokimiyatini yurgizishdagi ishtiroki chog'ida, shuningdek, siyosiy munosabatlarni tartibga solish borasida qo'llaydigan, tayanadigan, rioya etadigan qadriyatlar, siyosiy g'oyalar tizimidir. Bundan tashqari, siyosiy

madaniyat muayyan millat yoki ijtimoiy jamoaning siyosat olami, siyosiy jarayonlarni amalga oshirishning qonun-qoidalari to'g'risidagi tasavvurlari majmui hamdir.

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonida shakllanayotgan siyosiy madaniyatda o'tmishdagi, hozirgi kundagi va chet ellardagi siyosiy madaniyatning ta'sirini ilg'ash qiyin emas. G'arb demokratik mamlakatlarida davlat, jamiyat va shaxsning o'zaro hamkorligida asosan fuqarolik jamiyati va shaxs yetakchilik qilsa, O'zbekistonda bunday uyg'unlik faqat hozirgi bosqichda shakllanmoqda. Bundan tashqari, siyosiy madaniyat bizda hokimiyat uchun kurash tarzida emas, balki ijtimoiy-siyosiy muammolarni davlat, hokimiyat institutlari bilan birgalikda, an'anaviy-axloqiy qadriyatlarga tayangan holda yechish ko'rinishida yuzaga kelmoqda. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etishning eng muhim shartlaridan yana biri fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishdir. Milliy mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi davlat va jamiyat qurish masalasida rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tarixiy tajribasini chuqur o'rganish natijasida fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi "O'zbek modeli" ning nazariy asoslari ishlab chiqildi. Unga ko'ra "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyagi sari" konseptual dastur va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish amaliyotda o'z ifodasini topib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining o'z burchlari va majburiyatlariga sodiqligi, ularning ona Vatanni himoya qilish, qadimiy tariximiz va ma'naviy madaniy ulug' ajdodlarimizning merosini, atrof tabiiy muhitni avaylab asrashdek ma'suliyatlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, Konstitutsiya va qonunlarda jamiyat va davlatning ijtimoiy asoslari, mamlakatda o'rnatilgan huquqiy tartibot, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi ifoda etiladi. Shu sababli ularga har bir fuqaror qa'tiy rioya etishi shart. Bu qoidalarni har qanday ko'rinishda buzish davlat, jamiyat va fuqarolarning manfaatlariga putur etkazadi. Odatda soliqlarni davlatning qon tomirlarga o'xshatiladi. Insoniyatning yashashi uchun "qon tomirlari" naqadar muhim ekanligi, soliqlarni ham mustaqil davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini barqarorligini ta'minlashdagi muhim vazifasi shunchalik muhim ekanligini mustaqil fikrlashni, har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishimiz va ularni avaylab asrash zamirida tarixiy adolatni qaror toptirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi, O'zbekiston Qurolli kuchlarining maqsadi urush va qurolli majorolarni qaytarish hamda oldini olish, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini,

suvereniteti, hududiy yaxlitligini, hamda aholining tinch hayotini himoya qilishdan iborat ekanligi va ularni o'z vaqtida vijdonan bajarish uchun har bir fuqarorning o'ta ma'suliyatli 190 majburiyatlari ekanligini unutmash lozim. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, tom ma'noda, yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy poydevori hisoblanadi. Bu borada Konstitutsiyamizning o'ziga xosligi undagi ayrim normalarning boshqa mamlakatlar konstitutsiyalarida uchramasligidagina emas, balki ularning chindan ham amaliy, real huquqiy normalar ekanligida, Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklar amalda ham kafolatlanganligida, oldimizga qo'yilgan maqsadlarga bosqichma-bosqich erishayotganimizda, deb hisoblashimiz uchun barcha asoslar mavjud. Yoshlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'yicha bilimlarini oshirish, birinchidan, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalashga va yuksaltirishga, ikkinchidan, yoshlarda ota-onaga, Vatanga va qonunlarga bo'lgan hurmat ruhini shakllantirishga, uchinchidan, O'zbekiston davlati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarga dahldorlik hissini uyg'otishga va shu bilan birgalikda Respublikamiz Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rne va nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi. Yuqorida bildirib o'tilgan fikr va mulohazalar mamlakatimizda yoshlarga keng sharoit yaratib berish borasida amalga oshirilayotgan va hozirgi kunimizga qadar davomlanayotgan islohotlarning ayrimlaridan misol xolos. Maqsad esa bildirilayotgan ushbu ishonch va e'tiborga munosib bo'lgan yosh avlodni shakllantirish, ularga Konstitutsiya va qonunlarga hurmat hissini singdirishdir. Biz hech qachon hech kimdan kam bo'lmaganmiz, kam emasmiz, kam bo'lmaymiz ham! Yoshlar qaysi sohada bo'lmasin, zamonaviy bilimlarni egallashga, ilm cho'qqilarini zabt etishga, eng ilg'or texnika va texnologiyalarni jilovlashga bel bog'lar ekan, avvalo, mana shu da'vatga tayanib ish ko'rishi ayni muddaodir. Biz shavkatli ajdodlarimizga munosib avlod bo'lmog'imiz ham qarz, ham farzdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari -- eng oliy qadriyat. 14-jild. -Toshkent: "O'zbekiston", 2006.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi - Toshkent: "O'zbekiston", 2010.
3. Ziyonet.net
4. Natlib.uz